

HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA AXLOQIY IDEALNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MOHIYATI VA UNING SHAKLLANISH MEXANIZMLARI**Mo‘minov F.Q. –***Samarqand shahri bo‘yicha IIO FMB huzuridagi
Qo‘riqlash xizmati boshlig‘i o‘rinbosari.*

Axloqiy ideal inson va jamiyatning ma'naviy taraqqiyotini belgilovchi asosiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, harbiy xizmat tizimida ushbu tushuncha alohida ahamiyat kasb etadi, chunki harbiy xizmatchi faoliyati nafaqat huquqiy me'yorlarga, balki yuqori darajadagi axloqiy mas'uliyatga ham tayanadi. Zamonaviy ijtimoiy jarayonlarda axloqiy qadriyatlarining transformasiyasi sharoitida harbiy xizmatchilar ongida barqaror axloqiy idealni shakllantirish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Axloqiy ideal tushunchasining falsafiy-tahliliy asoslari ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan insonning ma'naviy mohiyatini, uning jamiyatdagi ontologik o'rnini hamda axloqiy ong va amaliy faoliyat o'rtasidagi dialektik birligini ochib beradi. Bu tushuncha, avvalo, ijtimoiy-falsafiy kategoriyalar – borliq va ong, shaxs va jamiyat, erkinlik va mas'uliyat, qadriyat va ma'no, burch va ezgulik dialektikasi orqali talqin qilinadi. Axloqiy ideal ijtimoiy borliqning individual ongda aks etuvchi, lekin shu bilan birga jamiyatni ma'naviy yaxlitlikka yo'naltiruvchi normativ mezonidir. Insonning ma'naviy mavjudligi aynan axloqiy ideal orqali o'zining falsafiy mohiyatini topadi: u "bo'lish" (ontologik) holatdan "bo'lishga intilish" (teleologik) jarayoniga aylanadi. Shu ma'noda, axloqiy ideal ijtimoiy borliqning o'z-o'zini takror ishlab chiqaruvchi ma'naviy mexanizmi sifatida qaraladi.

Harbiy xizmatchilar faoliyati kontekstida axloqiy ideal — bu ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida insonning shaxsiy e'tiqodi, ijtimoiy burchi va jamiyatdagi funksional o'rni o'rtasidagi uyg'unlikni anglatadi. Harbiy kasbda axloqiy idealning mohiyati, avvalo, Vatanga sadoqat va axloqiy javobgarlik kategoriyalari orqali ochiladi.

Harbiy jamoa shaxsning axloqiy ideali uchun "ijtimoiy laboratoriya" vazifasini bajaradi. Bu yerda axloqiy ideal ijtimoiy normativ tizimning individual ongda interiorizatsiyasi sifatida amal qiladi. Falsafaning sotsiomadaniy paradigmalaridan biri — sotsial konstruktivizm doirasida aytganda, harbiy jamoaning qadriyatlari individual ma'naviyatning konstruktiv komponentiga aylanadi. Shu bilan birga, bu yondashuv tanqidiy jihatdan shuni ko'rsatadiki, axloqiy idealni faqat tashqi sotsial determinantlar bilan bog'lash uning ichki, ekzistensial mohiyatini so'ndiradi. Chunki insonning axloqiy ideali faqat ijtimoiy reproduksiya emas, balki shaxsiy refleksiya mahsulidir.

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan axloqiy ideal bu yerda go'zallik va ezgulikning sintezi sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, harbiy xizmatchining ma'naviy yetukligi nafaqat axloqiy me'yorlarga rioya etish, balki ichki uyg'unlik, estetik did va ruhiy go'zallikka erishish jarayonidir. Harbiy xizmatchining faoliyati bu kategoriyalarning uyg'un sintezi sifatida insonning axloqiy ideali hayotga tatbiq etiladigan amaliy makon — ma'naviy borliq shakliga aylanadi. Shu sababli, axloqiy ideal harbiy hayotda shunchaki tarbiyaviy tamoyil emas, balki insonning jamiyatdagi mavjudligini belgilovchi falsafiy paradigma, uning ma'naviy o'zligini anglash jarayonidir.

Milliy-axloqiy ideallarni harbiy xizmatchilar ongida mustahkamlash masalasi zamonaviy ijtimoiy falsafaning eng dolzarb va strategik yo'nalishlaridan biridir. Chunki axloqiy ideal tushunchasi insonning ma'naviy kamolotga erishish yo'lidagi eng oliy ma'no va g'oyaviy yo'nalishini ifodalab, harbiy xizmatchining ongida vatanparvarlik, burch, vijdon, fidoyilik va adolat kabi fazilatlarining falsafiy negizini mustahkamlaydi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan axloqiy ideal – bu jamiyatning ruhiy barqarorligini ta'minlaydigan, millatning ma'naviy o'zligini belgilaydigan, ijtimoiy borliqni ezgulik va adolat tamoyillari orqali tashkil etuvchi normativ modeldir. Harbiy xizmat tizimida esa u ijtimoiy va shaxsiy axloqning eng yuqori bosqichini ifodalaydi, chunki harbiy inson o'z faoliyatida nafaqat qonun va tartibga, balki vijdon va axloqiy mas'uliyatga ham tayanadi. Shu sababli milliy-axloqiy ideallarni harbiy xizmatchilar ongida mustahkamlash masalasini falsafiy tahlil qilish axloqiy idealning mazmunini chuqur anglashdan boshlanadi.

Ibn Miskavayh o'zining "Tahzibul-axloq va Tatxirul-a'roq" asarida inson komilligi masalasiga to'xtalib, axloqiy idealni "ruhning poklanishi, aql va imon birligida kamolotga erishish jarayoni" sifatida talqin qiladi. U shunday yozadi: "Inson o'z ruhini shunday fazilatlar bilan tozalashga intilmog'i lozimki, bu fazilatlar unga ezgu ishlarni yengillik bilan bajarish imkonini beradi". Miskavayhning bu fikrida axloqiy ideal insonning ichki dunyosini ilohiy komillik sari yo'naltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Uningcha, haqiqiy saodat – bu ruhning aql orqali o'z mohiyatini anglab, ezgulikni amal bilan uyg'unlashtirgan holatidir. Ilmiy-ijodiy jihatdan bu yondashuv harbiy xizmat uchun ham nihoyatda muhimdir, chunki harbiy faoliyat – bu tashqi intizom bilan bir qatorda ichki ruhiy uyg'unlikni ham talab etadi. Miskavayh ta'limotida axloqiy idealning ma'naviy va psixologik jihatlari harbiy xizmatchining axloqiy tayyorgarligi va o'zini boshqarish qobiliyatining falsafiy asosi sifatida ko'rilishi mumkin. Biroq tanqidiy nuqtai nazardan Miskavayh axloqiy idealni asosan individual ruhiy kamolot bilan chegaralaydi, ijtimoiy hamkorlik va jamoaviy burch tamoyillari esa ikkinchi planda qoladi. Shu bois uning konsepsiyasini harbiy amaliyotga tatbiq etishda, uni ijtimoiy axloq va jamoaviy mas'uliyat tushunchalari bilan boyitish zarur.

Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida axloqiy idealni ijtimoiy uyg'unlikning markaziy kategoriyasi sifatida talqin etadi. U shunday deydi: "Adolat – bu har bir insonning o'z qobiliyatiga yarasha yashashi va jamiyat farovonligiga hissa qo'shishidir". Forobiy uchun axloqiy ideal – bu ijtimoiy adolat, ilm, imon va ma'naviy barkamollik uyg'unligidir. U inson axloqini shaxsiy fazilatlar yig'indisi sifatida emas, balki jamiyat barqarorligini ta'minlovchi ijtimoiy mexanizm sifatida tushunadi. Harbiy xizmat tizimida Forobiyning "fozil jamiyat" konsepsiyasi ayni ma'noda "fozil armiyaga" to'g'ri keladi. Chunki harbiy intizom, adolatli rahbarlik, jamoaviy birdamlik va mas'uliyat tuyg'usi aynan Forobiyning axloqiy-ijtimoiy ideallarini amalda ifodalaydi. Harbiy xizmatchining axloqiy ideali Forobiycha adolat, jasorat va iffatning uyg'unlashgan shaklidir, bu esa uni "jamiyatning axloqiy qo'rg'oni"ga aylantiradi. Shu bilan birga, tanqidiy jihatdan ta'kidlash joizki, Forobiy axloqiy idealni mukammal holatda ifodalagan bo'lsa-da, u inson tabiati va harbiy faoliyatdagi qarama-qarshiliklarni real psixologik sharoitda tahlil etmaydi. Shuning uchun Forobiyning g'oyasini zamonaviy harbiy etikada shaxsning real ijtimoiy vaziyatlar bilan to'qnashgan holatida axloqiy qaror qabul qilish mexanizmlarini rivojlantirish orqali yanada chuqurlashtirish zarur.

Ibn Sino o'zining "Axloq haqidagi risola"sida axloqiy idealni aql va odat uyg'unligida talqin etib, "yaxshi xulq – bu ongli odatdir" deya ta'kidlaydi. Ibn Sino fikricha, inson axloqiy komillikka aqlni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish orqaligina erishadi. U "Inson o'z nafsini boshqarib, aqlni hukmron qilsa, ezgulik odatga aylanadi" degan g'oyani ilgari suradi. Harbiy faoliyatda bu fikr nihoyatda muhim: harbiy xizmatchining axloqiy idealini shakllantirish – bu ezgu xatti-harakatlarni ongli tarzda odatga aylantirish demakdir. Chunki harbiy intizomning mohiyati majburiyatdan ko'ra ongli irodaga, ongli irodadan esa axloqiy ishonchga tayanadi. Ibn Sinoning fikricha, inson o'zining ichki "axloqiy qonuni"ni anglab, uni amalda tatbiq eta olgan paytda komillikka erishadi. Shu bois uning "aql va odat birligi" haqidagi konsepsiyasi harbiy etikada vijdon va burch uyg'unligining falsafiy asosidir. Tanqidiy mulohaza sifatida aytish joizki, Ibn Sino axloqni shaxsiy kamolot bilan bog'lagan holda, uni ijtimoiy tizimlar bilan aloqador holatda yetarlicha tahlil qilmaydi, biroq uning "aqlga asoslangan axloq" nazariyasi harbiy xizmatda strategik qarorlarni axloqiy javobgarlik bilan uyg'unlashtirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Sh.E.Fayzullaev o'zining "Ma'naviy tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning ahamiyati" nomli ilmiy maqolasida "Axloq – ma'naviyatning o'zagi bo'lib, u imon va ilm uyg'unligida kamol topadi"[11] deb ta'kidlaydi. Muallifning "ma'naviy-axloqiy immunitet" haqidagi fikri zamonaviy falsafiy tafakkurda axloqiy idealni mafkuraviy tahdidlardan himoya qiluvchi ijtimoiy mexanizm sifatida talqin etish imkonini beradi. Harbiy xizmatchilar faoliyatida bu konsepsiya bevosita ahamiyat kasb etadi, chunki ularni turli mafkuraviy va axloqiy bosimlardan himoya qiluvchi ichki ma'naviy barqarorlikni shakllantirish aynan axloqiy immunitet bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, tanqidiy nuqtai nazardan aytish lozimki, axloqiy idealni faqat himoya funksiyasida tushunish uning yaratuvchan, faol va ijodiy mohiyatini cheklaydi. Falsafiy jihatdan harbiy xizmatchining axloqiy

ideali faqat mafkuraviy bosimlarga qarshi tura olish emas, balki ijtimoiy ezgulikni faol tarzda yaratish, harbiy burchni vijdonan ado etish orqali jamiyatda axloqiy yetakchilikni amalga oshirishdir.

D.S.Axmedova esa “Axloqning dolzarb muammolari” asarida bugungi global axloqiy inqirozni “egotsentrizm va erkinlik niqobidagi axloqsizlik” deb ta’riflaydi. Unga ko’ra, inson erkinligini axloqiy mas’uliyatdan ajratish jamiyatning ma’naviy tanazzuliga olib keladi. Bu fikr, harbiy faoliyat kontekstida, axloqiy idealning ijtimoiy barqarorlikdagi rolini chuqur anglash zaruratini ko’rsatadi. Chunki harbiy xizmatchi o’z faoliyatida nafaqat buyruqqa, balki axloqiy qarorga ham tayanadi. Shuning uchun axloqiy ideal – bu erkinlik va mas’uliyat o’rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi falsafiy prinsipdir. Harbiy inson uchun erkinlik – bu o’z burchini ongli anglash, axloqiy mas’uliyat esa – bu burchni vijdonan ado etishdir. Demak, axloqiy ideal ijtimoiy falsafaning markaziy tushunchalaridan biri bo’lib, u harbiy xizmatchilar ongida ma’naviy barqarorlik, axloqiy yetuklik va vatanparvarlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Ibn Miskavayh axloqiy idealni ruhiy poklanish bilan, Forobiy uni ijtimoiy adolat va uyg’unlik bilan, Ibn Sino esa aql va odat uyg’unligi bilan asoslagan bo’lsa, zamonaviy mualliflar bu idealni ma’naviy immunitet va axloqiy barqarorlikning ijtimoiy sharti sifatida ko’rsatadilar. Harbiy xizmatchilar faoliyatida esa axloqiy idealning mohiyati shundaki, u shaxsiy vijdon va ijtimoiy burch birligida ifodalanadi, bu esa milliy-axloqiy qadriyatlarning eng oliy amaliy ko’rinishidir. Shu bois, harbiy ongda axloqiy idealni mustahkamlash – bu nafaqat axloqiy tarbiya, balki ijtimoiy falsafa amaliyotining eng yuksak shaklidir.

Axloqiy ideal muammosi jamiyatning ma’naviy hayoti, inson ongi va faoliyatining eng yuksak ruhiy ifodasi sifatida ijtimoiy falsafa uchun doimo markaziy masalalardan biri bo’lib kelgan. Ideal tushunchasi, ayniqsa axloqiy ideal shaklida, inson va jamiyatning o’z-o’zini anglash jarayonida, ya’ni ma’naviy taraqqiyotning mohiyatini tushinishda muhim ahamiyat kasb etadi. Axloqiy idealni falsafiy tahlil qilish uning gnoseologik, ontologik va aksiologik mazmunini ochishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan qator olimlar o’z tadqiqotlarida ushbu masalaga turlicha yondashuvlarni ilgari surganlar.

S.D. Sattorovanning “Ijtimoiy ideal va reallik dialektikasi” nomli ishida bu masala teran ifodalangan. U shunday deb yozadi: “ideal va reallik o’rtasidagi munosabat dialektik birlikdir, ideal reallikdagi ziddiyatlarni anglash va ularni bartaraf etish vositasi sifatida namoyon bo’ladi”[12]. S.D.Sattorovanning bu mulohazasi Samadov fikrini to’ldiradi, chunki axloqiy idealning ijtimoiy mohiyati aynan real hayot bilan bog’liq holda rivojlanadi. Uningcha, ideal jamiyatdagi mavjud kamchiliklarga qarshi ruhiy-axloqiy munosabat sifatida vujudga keladi va uni bartaraf etishga intiladi. Shu jihatdan, axloqiy ideal statik me’yor emas, balki ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan faol kuchdir. Bu qarash ijtimoiy falsafadagi harakat, o’zgarish va o’z-o’zini yangilash tamoyillariga mos keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki:

- Axloqiy ideal shaxs va jamiyat o’rtasidagi dialektik birlik mahsuli hisoblanadi.
- Harbiy xizmatchilar faoliyatida axloqiy ideal vijdon, burch, sadoqat va adolat kabi kategoriyalar orqali namoyon bo’ladi.
- Harbiy jamoa axloqiy idealni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy muhit hisoblanadi.
- Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Ibn Sino, Miskavayh) va G’arb faylasuflari (Kant, Durkheim, Maslow) qarashlari axloqiy idealning turli jihatlarini ochib beradi.
- Axloqiy ideal nafaqat individual kamolot, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi omildir.

Olingan natijalar shuni ko’rsatadiki, axloqiy idealni shakllantirish jarayoni murakkab va ko’p omilli tizimdir. U nafaqat tashqi ijtimoiy muhit, balki shaxsning ichki ruhiy dunyosi bilan ham chambarchas bog’liq. Harbiy xizmat tizimida esa bu jarayon yanada murakkablashib, shaxsiy manfaat va ijtimoiy burch o’rtasidagi muvozanatni ta’minlash vositasiga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, axloqiy ideal harbiy xizmatchilar faoliyatining ajralmas qismi bo’lib, ularning ma’naviy barkamolligi va kasbiy samaradorligini belgilovchi asosiy omildir.

Uni shakllantirish:

- ma'naviy tarbiya
 - ijtimoiy muhit
 - shaxsiy ong va e'tiqod
- asosida amalga oshiriladi.

Shu bois, harbiy tizimda axloqiy idealni mustahkamlash davlat va jamiyat barqarorligi uchun strategik ahamiyatga ega

ADABIYOTLAR:

1. Ibn Miskavayh. Tahzibul-axloq va Tatxirul-a'roq. Qohira, 1946. – 317–321-betlar.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent: Sharq, 2005. – 45–47-betlar.
3. Ibn Sino. Al-Ishorat va at-tanbihot. Qohira, 1365 h. – 333-bet.
4. Fayzullayev Sh.E. Ma'naviy tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning ahamiyati. Ekonomika i sotsium, №8(134), 2025. – 145–148-betlar.
5. Сатторова Д.Ф. Ижтимоий идеал ва реаллик диалектикаси. — Тошкент, 2011. — 140 б.

RESUME:

Mazkur maqolada axloqiy ideal tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mohiyati hamda uning harbiy xizmatchilar faoliyatidagi o'rni kompleks tarzda tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: axloqiy ideal, harbiy xizmatchi, ma'naviyat, ijtimoiy falsafa, qadriyatlar, vatanparvarlik.

РЕЗЮМЕ:

В статье анализируется социально-философская сущность морального идеала и его роль в деятельности военнослужащих.

Ключевые слова: моральный идеал, военнослужащий, духовность, ценности, общество.

RESUME:

This article analyzes the socio-philosophical essence of the concept of moral ideal and its role in the activities of military personnel.

Keywords: moral ideal, military personnel, spirituality, social philosophy, values, patriotism.